"O'zmilliybank" AJ Namangan viloyat Bosh boshqarmasida Sardoba BXOda o'tkazilgan

DAVRA SUXBATI

2026 yil " 9 " iyun Namangan shahri

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Namangan viloyat Сардоба **BXO** мудири ва ходимлари (давра сухбатида 5 та ходим иштирок этди).

KUN TARTIBI

1. Korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish to'g'risida.
2. "O'zmilliybank" AJ ning xodimlarining xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar Rejasi" da belgilangan talablar va ularni ijrosi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar.
3. "Ixbet, PokerSars" va boshka onlayn totalizator xamda azart o'yinlari o'ynash, o'ynagan taqdirda mehnat shartnomasi bir tomonlama ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilinishi to'g'risida.

KUN TARTIBIDAGI MASALALAR:

Davra suxbatini BXO mudiri M.Abdulbositov o'z so'zi bilan ochib, "O'zmilliybank" AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rib chiqilgan masalalar va topshiriqlar, bank xodimlarining xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar xaqida nutq so'zladi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Boshqarma Komplyns nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash buyicha bosh mutaxassisi Z.Qirg'izovga so'z berib, Z.Qirg'izov so'zga chiqib BXM da noqonuniy operatsiyalar bajarilishi, bank va mijozlarning mablag'larini o'zlashtirish xatarini oldini olish, xodimlar tomonidan "O'zmilliybank" AJ Ichki tartib qoidalarini buzilishini oldini olish hamda bank xodimi ish etikasi va axloq-odob kodekslariga rioya qilinishini kuchaytirish maqsadida xodimlar tomonidan firibgarlik, korrupsiya, ta'magirlik, mansab vakolatlarini suiste'mol qilish va boshqa salbiy xolatlar sodir etilayotganligi, ushbu salbiy xolatlarning oldini olish yuzasidan o'z fikrlarini bayon qildi.

Davra suxbati davomida banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha milliy qonunchilikning asosiy maqsadi tug'risida so'zladi. Shu bilan birga xodimlarining totalizator va azart o'yinlar o'ynashini taqiqlash to'g'risida"gi 126-sonli buyrug'ida O'zmilliybank AJ barcha xodimlari (1xbet) (Pokerstars) va boshqa onlayn totalizator xamda azart o'yinlarni o'ynash bilan bog'liq xatti-xarakatlari ish beruvchi tomonidan xodimga nisbatan ishonchning yo'qolishiga asos xamda bank xodimi ish etikasi va ishdagi odob axloq tamoyillariga zid deb xisoblanishini aytib o'tdi. Mijozlarni lozim darajada tekshirish, ularni barcha operatsiyalarini nazorat qilib borish lozimligini, mijozlarning noqonuniy amaliyotlar bajarishga bo'lgan urinishlarini oldini olish xaqida ta'kidlandi. Jumladan, "Korrutsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq: **korrupsiya** - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishni anglatadi.

Korrrupsiyaga qarshi kurashishning bir necha prinsiplari mavjud bo'lib, ulardan asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratligi, ya'ni:

- qonuniylik;
- fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining xamkorligi;

- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ekanligi bank xodimlariga yetkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni mavjudligi va bu mamlakatimizda barcha soxalarda birdek amal qilishi, qonunning ustivorligi va jazoning muqarrarligini barchamiz birdek xis qilishimiz zarurligi to'g'risida bildirildi.

PF-5729-sonli Farmonga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi hamda "O'zmilliybank"ning chora-tadbirlar Rejasi bo'yicha ma'ruza o'qib eshittirildi. Ma'ruzaga qo'shimcha qilgan xolda quyidagi mazmunda so'z yuritildi:

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida muxim tashkiliy-xuquqiy isloxotlar amalga oshirildi. Axolining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatnini oshirishga, jamiyatda korupsiyaga murosasiz munosobatni shakillantirishga yunaltirilgan tizimli choralar ko'rildi. Davlatimiz raxbari tomonidan jinoyatchilik va korupsiya bizning o'z xavfsizligimizga xam, xalqaro xavfsizlikka xam taxdid soluvchi real manbadir deb aytib o'tilgan. Binobarin, mazkur xodisaga qarshi kurashish masalalari birgina bizga taa'luqli emas, shuning uchun xam biz, jinoyatchilik xaqida butun jaxon xamjamiyati qayg'urmog'i lozim, deb xisoblaymiz. Suveren O'zbekiston xalqi va raxbariyati esa ular bilan faol xamkorlik qilishga tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta'minlash ishiga qo'shilgan xissa deb biladi, deb fikr bildirgan edilar. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoyatchi unsurlarni xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug'dirishi, bu esa o'z navbatida mamlakat uchun xam jaxon xamjamiyati uchun xam nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining aloxida turi shakllanishiga olib keladi.

PF-5729-sonli Farmonga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi hamda O'zmilliybankning chora-tadbirlar Rejasi bo'yicha axolining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida O'zmilliybank xodimlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot tushuntirish ishlari olib borilib xozirgi kunda bankka kelayotgan xar bir mijozlarga xodimlar tomonidan xushmuomala munosabatda bo'lishlik, qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslik, mijozlarni sarsongarchiligiga chek qo'yish, mijozlardan qabul qilinayotgan xujjatlar yuzasidan tamagirlikka yo'l qo'ymaslik, mijozlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tushuntirishlar berilib ushbu soxa buyicha chora tadbirlar ishlab chikildi.

Shundan so'ng, yig'ilish ishtirokchilariga Korrupsiyani to'riga tushib qolmaslik, korrupsiya bilan shug'ullanmaslik, Korupsiyaga belgilagan jazo muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 167-moddasi - O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, 168-moddasi - Firibgarlik , 205-moddasi–Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish, 206-moddasi-Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, 207-moddasi-Mansabga sovuqqonlik bilan qarash, 209-moddasi-Mansab soxtakorligi, 210-moddasi - Pora olish, 211-moddasi - Pora berish, 212-moddasi-Pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarini sodir etmaslik buyicha keng tushuntirishlar berildi.

Shuningdek xar bir bank xodimiga "Bank xodimining kasb odob-axloqi", ichki mexnat tartibi va o'z xizmat vazifalariga jiddiy yondashishi, sodir etilgan jinoyat jazosiz qolmasligi, shu kabi qonunbuzarliklar, hamda xato kamchiliklarni kelib chiqishining sabablari, ularni bartaraf etish va kelgusida kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari, shaxsiy eletron manzillariga Bosh ofisdan kelayotgan Korrupsiya buyicha o'quv mashg'ulot darsliklari bilan tanishib borishlari to'g'risida ta'kidlab o'tildi.

Davra suxbati ochiq tarzda o'tkazilib, yig'ilish qatnashchilari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, yetarlicha javoblar olishdi.

Majlis so'ngida kun tartibidagi masalalar yuzasidan

DAVRA SUXBATIDAN KELIB ChIQIB:

1. Sardoba BXOda o'tkazilgan davra suxbatida Korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish to'g'risida ma'ruzalar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin. BXO xodimlarni nojo'ya xatti-xarakat sodir qilishlarini oldini olish borasida bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari tomonidan ular bilan yuqoridagi me'yoriy xujjatlar asosida samarali ishlar olib borilsin va ularning ish faoliyati uzluksiz nazorat qilinsin.

2. BXO xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-maydagi PF-5729-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Farmonida shuningdek barcha korrupsiyaga oid xujjatlarda belgilangan talablarga qat’iy rioya qilinsin.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan majburiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi xolatlari va talablarni buzilishi aniqlangan xolatlarda raxbar va xodimlarga nisbatan jiddiy jazo choralari ko‘rilishi haqida ogohlantirilsin.
4. Bosh ofis tomonidan yuborilayotgan buyrug‘ va ko‘rsatmalari ijrosi o‘z vaqtida ta’minlansin.

Davra suxbati o‘tkazidi: **Z.Qirg‘izov.**

Давра сухбатида қатнашганлар

т/р	Ходимнинг Ф.И.О	Лавозими	Имзоси
1	М. Абдулбаетов	БХО мудири	
2	Б. Маматдиаков	Бош мутахассис	
3	I. Solixonov	Yetakchi m.	
4	Ф. Нуриддинова	коссир	
5	Г. Мусаева	коссир	